



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

TIBBIYOT TALABALARIGA INGLIZ TILI LEKSIKASINI O'RGATISHDA MBTI (MAYERS-BRIGGS SHAXS TIPLARI INDIKATORI) NING ROLI

Xodjayeva Nilufar Amatdjanovna
Urganch davlat tibbiyot instituti, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada MBTI (Mayers-Briggs shaxs tiplari indikatori) asosida aniqlanadigan shaxsiyat turlarining tibbiyot talabalariga ingliz tili leksikasini o'rgatish jarayoniga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqotda MBTI turlarining talabalar motivatsiyasi, o'rganish uslubi va dars jarayonidagi ishtirokiga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Shuningdek, MBTI asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Mayers-Briggs shaxs tiplari indikatori, tibbiyot maqsadlari uchun ingliz tili, so'z boyligini o'zlashtirish, shaxs tiplari, differensial (individual yondashuvli) ta'lim, tibbiy ta'lim.

РОЛЬ MBTI (ИНДИКАТОРА ТИПОВ ЛИЧНОСТИ МАЙЕРС–БРИГГС) В ОБУЧЕНИИ ЛЕКСИКЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ

Ходжаева Нилуфар Ааматджановна
Ургенский государственный медицинский институт, доцент

Аннотация

В данной статье рассматривается влияние типов личности, определяемых с помощью MBTI (Индикатор типов личности Майерс-Бриггс), на процесс усвоения медицинскими студентами лексики английского языка. Исследование анализирует, как типы MBTI влияют на мотивацию студентов, стиль их обучения и участие в учебном процессе. Кроме того, приводятся практические рекомендации по совершенствованию методики преподавания на основе MBTI.

Ключевые слова: Индикатор типов личности Майерс-Бриггс, английский язык для медицинских целей, освоение словарного запаса, типы личности, дифференцированное обучение, медицинское образование.

THE ROLE OF MBTI (MYERS–BRIGGS TYPE INDICATOR) IN TEACHING ENGLISH VOCABULARY TO MEDICAL STUDENTS

Xodjayeva Nilufar Amatdjanovna
Urgench State Medical Institute, Associate Professor

Abstract

This article examines the influence of personality types, identified using the MBTI (Myers-Briggs Type Indicator), on the process of learning English vocabulary by medical students. The study analyzes how MBTI types affect students' motivation, learning styles, and classroom participation. Additionally, practical recommendations are provided for improving teaching methodologies based on MBTI.

Keywords: Myers-Briggs Type Indicator, English for medical purposes, vocabulary acquisition, personality types, differentiated (individualized) instruction, medical education.

Bugungi globallashuv sharoitida tibbiyot sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun ingliz tilini, ayniqsa professional tibbiy leksikani mukammal egallash muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Tibbiy ingliz tili nafaqat xalqaro ilmiy hamkorlik, balki zamonaviy ilmiy adabiyotlardan foydalanish, klinik tajriba almashish va kasbiy rivojlanish uchun ham zarur vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, tibbiy terminologiya asosan lotin va yunon (grek) ildizlariga asoslangan bo'lib, uning morfologik va semantik tuzilishi murakkabligi bilan ajralib turadi. Bu esa mazkur leksik qatlamni o'zlashtirish jarayonini qiyinlashtiradi va an'anaviy o'qitish metodlaridan ko'ra samaraliroq, moslashuvchan yondashuvlarni talab qiladi.

Til o'rganish jarayonida individual farqlar, xususan, shaxsiyat omili muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning kognitiv uslublari, motivatsiyasi va axborotni qabul qilish xususiyatlari ularning o'rganish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, Mayers–Briggs shaxs tiplari indikatori (MBTI) modeli muhim diagnostik vosita sifatida qaraladi. Ushbu model asosida talabalarning shaxs tiplari aniqlanib, ularning o'rganish uslublarini tahlil qilish va ta'lim jarayonini individuallashtirish imkoniyati

yaratiladi. Mazkur yondashuv, ayniqsa, tibbiy ingliz tili leksikasini o'rgatishda samarali bo'lib, o'quv jarayonini differensiallashtirish, talabalar ehtiyojlariga mos metodlarni tanlash hamda bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, MBTI asosida tashkil etilgan ta'lim modeli tibbiy ta'limda innovatsion va samarali metodlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Tibbiy ingliz tilini o'qitish, xususan, professional leksikani o'zlashtirish masalasi so'nggi yillarda ko'plab tadqiqotchilar e'tiborini tortib kelmoqda. English for Medical Purposes (EMP) yo'nalishi chet tilini o'qitishning maxsus sohasi sifatida shakllanib, unda terminologik kompetensiyani rivojlantirish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi [1]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tibbiy terminologiya ko'pincha lotin va yunon ildizlariga asoslangan bo'lib, murakkab morfologik tuzilishga ega [6]. Shu sababli, uni samarali o'zlashtirish uchun an'anaviy yodlash usullaridan tashqari, kontekstual va kommunikativ yondashuvlar ham muhim ahamiyat kasb etadi [7].

Leksik kompetensiyani rivojlantirish masalasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, Paul Nation so'z boyligini o'zlashtirish jarayonida takrorlash, kontekst va faol qo'llashning muhimligini ta'kidlaydi [7]. Uning fikriga ko'ra, yangi terminlarni o'rganishda ularni turli kommunikativ vaziyatlarda qo'llash orqali mustahkamlash yuqori natija beradi. Shuningdek, Norbert Schmitt leksikani o'zlashtirishda strategik yondashuvlarni, jumladan, mnemonik usullar, kontekstual o'rganish va mustaqil ta'limni muhim deb hisoblaydi [7].

Til o'rganishda individual farqlar, ayniqsa, shaxsiyat omili ham keng o'rganilgan. Carl Gustav Jung tomonidan ilgari surilgan psixologik tiplar nazariyasi keyinchalik Myers-Briggs Type Indicator (MBTI) modelining yaratilishiga asos bo'ldi [4,5]. Ushbu model ta'lim jarayonida talabalar o'rtasidagi individual farqlarni aniqlash va o'qitish strategiyalarini moslashtirish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, MBTI asosida tashkil etilgan darslar talabalarning motivatsiyasini oshiradi va bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini yaxshilaydi [2].

Differensial ta'lim (differentiated instruction) konsepsiyasi ham zamonaviy pedagogikada muhim o'rin tutadi. Carol Ann Tomlinson tomonidan ishlab chiqilgan ushbu yondashuv har bir o'quvchining ehtiyojlari, qobiliyatlari va o'rganish uslublarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etishni nazarda tutadi [8]. Ushbu yondashuv ayniqsa murakkab terminologiyani o'rganishda samarali bo'lib, talabalarning individual imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tibbiy ta'limda innovatsion metodlardan foydalanish zarurati ham ko'plab ilmiy ishlarda ta'kidlangan. Integrativ yondashuv, ya'ni til va kasbiy bilimlarni birgalikda o'rgatish, talabalarning nafaqat til kompetensiyasini, balki kasbiy tafakkurini ham rivojlantiradi [3]. Natijada, MBTI modeli va differensial ta'lim yondashuvlarini tibbiy ingliz tilini o'qitishda qo'llash zamonaviy va samarali pedagogik strategiya sifatida qoraladi.

Myers-Briggs Type Indicator (MBTI) shaxsiyatni tasniflashga qaratilgan psixologik model bo'lib, u insonlarning axborotni qabul qilish, qayta ishlash va qaror qabul qilish jarayonlaridagi individual farqlarni tushuntirishga xizmat qiladi. Ushbu model Carl Gustav Jung tomonidan ilgari surilgan psixologik tiplar nazariyasiga asoslanadi [4] hamda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'rganish uslublarini aniqlash va moslashtirishda keng qo'llaniladi [5].

MBTI tipologiyasiga ko'ra, shaxsiyat to'rtta asosiy dioxotomiya, ya'ni qarama-qarshi juft mezonlar asosida tavsiflanadi. Birinchi mezon — introversiya (I) va ekstraversiya (E) bo'lib, u insonning energiyani qayerdan olishini, ya'ni ichki fikrlash jarayonidanmi yoki tashqi ijtimoiy muhitdanmi — shuni ifodalaydi. Ikkinchi mezon — sensing (S) va intuition (N) — axborotni qabul qilish uslubini belgilaydi: sensing tiplar aniq faktlar va tajribaga tayanadi, intuition tiplar esa umumiy g'oyalar va imkoniyatlarni afzal ko'radi. Uchinchi mezon — thinking (T) va feeling (F) — qaror qabul qilish jarayonida mantiqiy tahlil yoki hissiy omillarga tayanishni aks ettiradi. To'rtinchi mezon — judging (J) va perceiving (P) — insonning tashqi dunyo bilan o'zaro aloqasida tartiblilik yoki moslashuvchanlik darajasini ko'rsatadi [5].

Mazkur to'rtta mezon kombinatsiyasi natijasida 16 xil shaxs tipi shakllanadi.

MBTI tipi	Shaxsiyat xususiyatlari	O'rganish uslubi / strategiya	Tibbiy ingliz tilida qo'llanishi
INTJ	Ichki dunyo (I), intuitsiya (N), mantiq (T), rejalash (J)	Chuqur tahlil, mustaqil o'rganish, konseptual tushuncha	Murakkab case-study, diagnostika va terminlarni mantiqiy bog'lash
INTP	Ichki dunyo (I), intuitsiya (N), mantiq (T), moslashuvchan (P)	Mustaqil o'rganish, nazariy tahlil, muammolarni yechish	Tadqiqot asosida terminologiyani o'zlashtirish, laboratoriya vazifalari [9]
ENTJ	Tashqi dunyo (E), intuitsiya	Rahbarlik va guruh ishlari,	Guruh darslari, loyiha ishlari,

	(N), mantiq (T), rejalash (J)	strategik yondashuv	klinik holatlar muhokamasi
ENTP	Tashqi dunyo (E), intuitsiya (N), mantiq (T), moslashuvchan (P)	Innovatsion va ijodiy yondashuv, muammolarni hal qilish	“What if” ssenariylari, kreativ diagnostika mashqlari
INFJ	Ichki dunyo (I), intuitsiya (N), hissiyot (F), rejalash (J)	Nazariy tahlil, empatiya bilan yondashuv	Bemor bilan psixologik muloqot, yozma case-study
INFP	Ichki dunyo (I), intuitsiya (N), hissiyot (F), moslashuvchan (P)	Mustaqil oʻrganish, ichki motivatsiya	Etik vaziyatlar, bemor tarixi yozma tahlili
ENFJ	Tashqi dunyo (E), intuitsiya (N), hissiyot (F), rejalash (J)	Guruh muhokamalari, liderlik	Guruh mashqlari, bemor bilan kommunikativ interaktiv darslar
ENFP	Tashqi dunyo (E), intuitsiya (N), hissiyot (F), moslashuvchan (P)	Ijodiy va interaktiv yondashuv	Role-play, bemor bilan simulyatsiya, klinik muammolar
ISTJ	Ichki dunyo (I), sensing (S), mantiq (T), rejalash (J)	Tuzilgan va tartibli oʻrganish, faktlar va jadval asosida	Terminologiya va protseduralarni mustahkamlash, klinik protokollar
ISFJ	Ichki dunyo (I), sensing (S), hissiyot (F), rejalash (J)	Aniq maʼlumotlarni tartib bilan oʻrganish, boshqalarga yordam	Patient care yozma mashqlar, klinik kuzatish
ESTJ	Tashqi dunyo (E), sensing (S), mantiq (T), rejalash (J)	Strukturaviy yondashuv, amaliy mashqlar	Klinik protokollar, guruh ishlari va nazorat testlari
ESFJ	Tashqi dunyo (E), sensing (S), hissiyot (F), rejalash (J)	Guruh ishlari, yordam berish va tartib	Bemor bilan interaktiv mashqlar, klinik amaliyot
ISTP	Ichki dunyo (I), sensing (S), mantiq (T), moslashuvchan (P)	Amaliy va konkret mashqlar, mustaqil faoliyat	Real klinik vaziyatlar, laboratoriya mashqlari, terminlarni amalda qoʻllash
ISFP	Ichki dunyo (I), sensing (S), hissiyot (F), moslashuvchan (P)	Amaliy va tajriba asosida oʻrganish	Bemor bilan interaktiv mashqlar, vizual materiallardan foydalanish
ESTP	Tashqi dunyo (E), sensing (S), mantiq (T), moslashuvchan (P)	Tez va amaliy oʻrganish, faol tajriba	Clinical simulation, tezkor diagnostika mashqlari
ESFP	Tashqi dunyo (E), sensing (S), hissiyot (F), moslashuvchan (P)	Amaliy va ijtimoiy faoliyat, real tajriba	Doctor-patient role-play, klinik situatsiyalarni sahnalashtirish


Har bir tip oʻziga xos kognitiv va oʻrganish xususiyatlariga ega boʻlib, bu taʼlim jarayonida individual yondashuvni talab etadi. Xususan, ayrim talabalar vizual va amaliy faoliyat orqali yaxshiroq oʻrganadigan boʻlsa, boshqalari nazariy tahlil yoki mustaqil ishlash orqali yuqori natijalarga erishadi.

Shu sababli, MBTI tipologiyasidan foydalanish oʻquv jarayonini differensiallashtirish, yaʼni har bir talabaning ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos metodlarni tanlash imkonini beradi. Bu yondashuv, ayniqsa, murakkab tibbiy terminologiyani oʻzlashtirishda samarali boʻlib, talabalarning bilimlarni chuqur va barqaror egallashiga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi tibbiyot talabalari oʻrtasida MBTI shaxsiyat tiplari va tibbiy leksikani oʻzlashtirish samaradorligi oʻrtasidagi bogʻliqlikni aniqlashdir. Tadqiqot modeli bir necha bosqichdan iborat boʻlib, har bir bosqich maqsadga muvofiq tarzda tashkil etildi.

1. MBTI testi: Tadqiqotning birinchi bosqichida talabalarning shaxsiyat tiplari Myers–Briggs Type Indicator (MBTI) yordamida aniqlanadi. Bu bosqich talabalarning individual farqlarini aniqlash va keyingi oʻrganish jarayonini moslashtirish uchun zarurdir.
2. Terminlar taqdimoti: Ikkinchi bosqichda talabalarga 30 ta yangi tibbiy termin taqdim etiladi. Har bir termin uchun qisqa definitsiya, tarjima va kontekstual misollar keltiriladi, bu esa soʻzlarni tez va samarali oʻzlashtirishga yordam beradi.
3. Oʻrganish bosqichi: Talabalar terminlarni mustaqil tarzda 30 daqiqa davomida oʻrganadilar. Bu bosqich individual oʻrganish va talabaning shaxsiyat tipiga mos yondashuvni qoʻllash imkonini beradi.
4. Test: Oʻrganish bosqichi yakunida talabalarga terminlarni tarjima qilish va ularni kontekstda ishlatish boʻyicha test topshiriladi. Ushbu baholash terminologik kompetensiya darajasini aniqlashga xizmat qiladi.
5. Tahlil: Yakuniy bosqichda olingan natijalar MBTI tiplari boʻyicha solishtiriladi. Statistik tahlil sifatida t-test va ANOVA metodlaridan foydalanilib, shaxsiyat tipi va leksik oʻzlashtirish samaradorligi oʻrtasidagi bogʻliqlik aniqlanadi.

TADQIQOT MODEL VA METODOLOGIYA



Ushbu model tadqiqot jarayonini tizimli va nazorat qilinadigan tarzda tashkil etishga, shuningdek, shaxsiyat tiplari asosida differensial yondashuvning samaradorligini baholashga imkon beradi.

MBTI tipologiyasi asosida dars jarayonini tashkil etishda quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. MBTI testini dars boshida o'tkazish, shunda o'qituvchi talabalarning shaxsiyat xususiyatlarini bilib, o'quv jarayonini moslashtiradi.
2. Har bir shaxsiyat tipi uchun mos o'qitish metodlaridan foydalanish, masalan, tizimli tiplar uchun mustaqil va tartibli mashqlar, faol tiplar uchun interaktiv va rolli o'yinlar.
3. Individual va guruh ishlarini uyg'unlashtirish, shunda talabalar bir-biridan o'rganadi va hamkorlik qilish orqali bilimni mustahkamlaydi.
4. Tibbiy leksikani kontekst asosida o'rgatish, ya'ni terminlarni real klinik vaziyatlar, case-study va amaliy mashqlar orqali tushuntirish.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, MBTI shaxsiyat turlari tibbiyot talabalari uchun ingliz tili leksikasini o'zlashtirish jarayoniga bevosita ta'sir qiladi. Xususan, INTJ va ISTJ tipidagi talabalar tizimli, rejalashtirilgan va samarali o'rganish uslubini qo'llashadi, shuning natijasida terminologiyani mustahkam o'zlashtiradi. Shu bilan birga, ENFP va ESNP tipidagi talabalar faol va ijodiy yondashuvga ega bo'lsalar-da, uzoq muddatli yodlash va terminlarni tizimli ravishda qayta ishlashda qiyinchilikka duch keladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dudley-Evans T., St John M.J. Developments in English for Specific Purposes. — Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
2. Felder R.M., Silverman L.K. Learning and Teaching Styles // Engineering Education. — 1988. — Vol. 78, № 7. — P. 674–681.
3. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes. — Cambridge: CUPress, 1987.
4. Jung C.G. Psychological Types. — London: Routledge, 1921.
5. Myers I.B., McCauley M.H. Manual: A Guide to the Development and Use of the MBTI. — Palo Alto: Consulting Psychologists Press, 1985.
6. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
7. Schmitt N. Vocabulary in Language Teaching. — Cambridge: Cambridge University Press, 2000.
8. Tomlinson C.A. How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms. — Alexandria, VA: ASCD, 2001.
9. Xodjayeva N.A. Doctor's Dictionary Practical Guide. — Tashkent: O'zkitobsavdonashriyot NMIU, 2025.